
“Mohir oshpaz” ko’rik-tanlovi o’tkazildi

Rishton tumanidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog’lom ovqatlanishni tashkil etish bo’yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini bajarish, maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan maktabgacha ta’lim tashkiloti oshpazlari orasidan ilg’or, ijodkor, tashabbuskor, fidoiylarni aniqlash va ularni ijodiy faolligini oshirish, ish faoliyatini samarali tashkil etayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari oshxonalarning tajribalarini ommalashtirish, ularni moddiy va ma’naviy rag’batlantirish maqsadida tumandagi 25-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotida tizimda faoliyat olib borayotgan oshpazlar o’rtasida “Mohir oshpaz” ko’rik-tanlovi o’tkazildi. Tanlovda 63 nafar oshpaz ishtirok etdi. Oshpazlar tomonidan tayyorlangan taomlar Farg’ona viloyati maktabgacha ta’lim boshqarmasi mutaxassisi M.Mamatqulov, bo’lim mutaxassislari tomonidan baholandi. Tanlov natijasiga ko’ra, 13-DMTT oshpazi 1-o’rinni, 30-DMTT oshpazi 2-o’rinni, 25-DMTT oshpazi 3-o’rinni egalladilar. G’oliblar esdalik sovg’alar bilan taqdirlandilar.

2022-09-13 14:24:44